

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA VATAN SOG'INCHI**

*Nukus DPI talabasi - Avezova Gulnoza*  
*Nukus DPI talabasi - Xasanboyeva Farangiz*

**Annotatsiya:** maqolada Bobur ruboiylarida vatan sog'inchining aks etishi jihatlarini ochib beriladi. Ruboiylar ma'nosi va Bobur shaxsi bir jihatdan ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Vatan, vatandan ayrolik, kamtar inson, firoq.

Ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so'z borar ekan, uning tariximizda, adabiyotimizda beqiyos o'rin tutganiga ahamiyat qaratish joiz. Ayniqsa, shoirning mumtoz she'riyatimizda yangicha ruh – Vatan va unga bo'lgan ishq ulug'vorligi yo'g'rilgan she'rlari diqqatga sazovordir. Darhaqiqat, Bobur ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ko'pgina she'rlari hasbi hol mazmunida bo'lib, mavzu jihatdan vatan va unga bo'lgan sog'inch asosiy o'ringa chiqadi. Uning ijodida o'z hayoti bilan baqamtilik sezilib turadi: shoh sifatida boshiga tushgan qiyinchiliklarni qog'ozga tushiradi. Zero, vatandan ayrolik, vataniga hukmdor bo'lolmagani shoir nazdida o'z, xato'laridan biri ekanligini yozadi:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.  
O'z yerini qo'yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Bu misralarda Bobur vatandan yiroqqa ketishini toleyiga joniga balolig' bo'lgani aytadi. Har bir ishni qilsa unga xatodek tuyuladi. O'z yerini qo'yib Hindiston sari yuzlanadi, Yo Rab nima qilayin bu yuz qarolig' bo'ldi.

Tarixiy asarlarga nazar tashlar ekanmiz, o'sha davrda Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit Boburning yurtda uzoq vaqt hukmdorlik qilishiga yo'l bermagan. Boburning o'zi xususidagi yuqoridagi ayblovi esa uning o'ziga nisbatan talabchanligidan, kamtar inson bo'lganidan dalolat beradi.

Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,  
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatta kishi.  
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi, oh,  
G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi.

Andin berikim, qasdim uchun turdi firoq,  
Yuz dardu alamni menga yetkurdi firoq.  
Meni eshikingdin, netayin, surdi firoq,  
Qil chora, yo'q ersa meni o'lturdi firoq.

Bu ruboiylarning har ikkalasi ham firoq azoblari haqida aytilgan .Ularning har biri o‘zicha go‘zal va original asarlardir. Bobur o‘zining Vatandan judolikda tug‘ilgan qayg‘u-alam hislarini singdirgan.

Bobur adolatli podshoh sifatida, hukmron bo‘lgan yurtlarda ham adolatli siyosat yuritdi. Xalqni ma‘rifatga, bunyodkorlikka chorladi. Ma‘naviy hayotga salbiy ta‘sir etuvchi omillardan voz kechib, jamiyat hayotida ularni ta‘qiqlab qo‘ydi. Hind xalqi hayoti va madaniyatining gullab-yashnashiga yuksak hissa qo‘shdi. O‘zining ilm-u irfoni bilan ma‘rifatni yanada rivojlantirdi. Ammo umr bo‘yi uning xayolini Vatan, unga bo‘lgan intilish band etdi:

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,  
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.  
Kobulda iqomat qildi Bobur, dersiz,  
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Bu ruboiysida Bobur vatanidan uzoqda yashashi tasvirlanadi. Bobur Kobulda muqum turdi deb aytmanlar bu yerda muqum ermasmen deb tasvirlaydi. Uning har bir misrasida vatan sog‘inchi aks etgan .

,Bobur ijodida faqat ruboiy janrida emas balik g‘azallarda ham vatan sog‘inchi aks etgan. U o‘zining yoriga nisbatan aytgan so‘zlari zamirida vataniga sog‘inchtuyg‘usi bor ,aks etgan.

Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,  
Ko'rub rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrayi zardim.  
Sen, ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,  
Ayog'ingg'a tushib, bargi xazondek muncha yolbordim.  
Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram qol,  
Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim.  
Xazondek qon yoshim sorig' yuzumdin el tanaffurda,  
Bahar range, bihamdilloh, ulusdin o‘zni qutqordim.  
Ne toledur mangakim, axtari baxtim topilmaydur,  
Falak avroqini har nechakim daftardin axtardim.  
Ulusning ta'n-u ta'rifi manga, Bobur, barobardur,  
Bu olamda o‘zumni chun yamon-yaxshidin o‘tkardim.

Boburning mazkur g‘azalida visol sog‘inchi ifodalangan. Shoir kuz manzarasini chizadi. Bu manzara podshoh shoirning taqdiriga mos keladi. Muallifning munosabati hamda tuyg‘ulari sharhi she‘rdagi sog‘inch va dardni, ayriliq fojiasini kuchaytirib boradi. Shoir umrning ayriliqda o‘tayotganidan zorlanib, «lolarux» (lola yuzli) dan rahm qilishini o‘tinadi. Kuz ko‘klamdan qanchalik uzoq bo‘lsa, oshiq ham ma‘shuqadan o‘shanchalik yiroqdaliki tasvirlanadi. Bu yerda Vatan sog‘inchi ham aks etgan.

G'urbatda ul oy hajri meni pir qilibtur,  
Hijron bila g'urbat manga ta'sir qilibtur.  
Maqdur boricha qiluram sayi visoling,  
To Tengrini bilmonki, ne taqdir qilibtur.  
Taqdirdur ul yon-u bu yon solg'uchi, yo'qsa,  
Kinga havasi Sanbal-u Tatyir qilibtur.  
Bu Hind yeri hosilidin ko'p ko'ngul oldim,  
Ne sudki, bu yer meni dilgir qilibtur.  
Sendin bu qadar qoldi yiroq, o'lmadi Bobur,  
Ma'zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

Bu g'azalda Boburning ko'ngil dardlarini chuqurroq anglashni istasangiz, ushbu g'azalni albatta o'qing. Unda bir qarashda yordan ayrilgan oshiqning hijronda chekkan azobi ifodalangandek tuyulsa-da, she'rning asl mohiyatiga kirib borar ekansiz, aslida uning Vatanga bo'lgan tuyg'ulari aks etgan qalb manzarasi ekanini his etasiz. Vatani ishtiyoqi, g'urbat iztirobi Boburga qadar hech bir shoirda bunchalik yorqin va betakror ifodalanmagan edi.

Davron meni o'tkardi sar-u somondin,  
Oyirdi meni bir yo'la xon-u mondin.  
Gah boshima toj, gah baloyi ta'na,  
Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin.

Bu ruboiysida ham vatanidan yiroqdaligi tasvirlanadi. Boshida toji bo'lsa ham bu unga baxt bera olmaganini aytadi. Boshiga kelgan har bir narsadan kuyunadi. Movarounnahrni tark etgach, ijodida Vatani motivi yanada kuchaydi, alohida hasratli mazmun kasb etdi. Endilikda vatani tushunchasi ham, g'urbat va g'ariblik tushunchalari ham kengayadi, konkretlashadi. Shoirga ona yurtida qolgan do'st-u yor, xesh-u aqrabolar va, hatto, tug'ilgan o'lka tabiati, noz-u ne'matlari Vatanni eslatadi, uning bir bo'lagi sifatida sog'inch bilan orzu etiladi, ardoqlanadi.

### Foydalangan adabiyotlar.

1. Z.M.Bobur.Boburnoma.
2. Z.M.Bobur.Ruboiylar.
3. ziyo.net.
4. saviya.uz
5. savol-javob.com
6. ma'rifat.uz
7. tafakkur.net